O‘SMIRLAR ORASIDA NIZOLAR KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI: EMPIRIK TADQIQOT VA STATISTIK TAHLIL

Olimov Saydullo Soxobjonovich

Qo‘qon universiteti, Pedagogika va psixologiya

Kafedrasi o‘qituvchisi

sayd.olim.soxobjon55@gmail.com

+99899 493 28 77

Saidjonova Barno Baxromjon qizi

Qo‘qon universiteti, Pedagogika va psixologiya

kafedrasi, Psixologiya yo‘nalishi talabasi

bahromovnabarno3@gmail.com

+998911222611

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy psixologiya fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblangan, maktab o‘quvchilari hayotidagi eng sezgir va inqirozli davr sanalgan o‘smirlik yoshida shaxslararo to‘qnashuvlar hamda kelishmovchiliklarning boshlanishiga zamin yaratuvchi yetakchi ijtimoiy-psixologik sabablar bitiruv malakaviy ishi doirasida keng qamrovli tarzda tahlil qilingan. Tadqiqot ishi davomida o‘smir shaxsining shakllanish qonuniyatlari, uning o‘ziga xos ruhiy kechinmalari, mustaqil qaror qabul qilishga bo‘lgan kuchli ichki ehtiyoji va bu ehtiyojning tashqi ijtimoiy muhit talablari bilan to‘qnashishi ilmiy asosda chuqur ko‘rib chiqilgan. O‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarning yuzaga kelish ko‘rsatkichlari, ularning individual-psixologik xususiyatlari, xarakter aksentuatsiyalari hamda emotsional sohasidagi beqarorlik darajalari o‘tkazilgan empirik sinovlar va matematik-statistik raqamlar orqali aniqlangan. Shuningdek, oiladagi ota-ona munosabatlarining o‘ziga xos uslublari, oilaviy mikroiqlim xususiyatlari hamda sinf jamoasidagi o‘zaro muloqot tizimi o‘smir xulq-atvorini g‘ayriixtiyoriy tarzda boshqaruvchi va nizolarga yetaklaydigan asosiy omillar sifatida o‘rganilgan. Maqolada maktab amaliyoti

sharoitida o‘smirlar o‘rtasidagi nizoli vaziyatlarni barvaqt aniqlash, korreksiyalash hamda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni barpo etish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar izchil ravishda bayon etilgan.

Annotation. This scientific article comprehensively analyzes the leading socio-psychological causes that trigger interpersonal conflicts and disagreements during adolescence, which is considered the most sensitive and crisis period in school students' lives, within the framework of a graduation qualification work. The research scientifically examines the formation laws of an adolescent's personality, their specific psychological experiences, strong inner need for independent decision-making, and the collision of this need with the requirements of the external social environment. The incidence of conflicts among students, their individual psychological traits, character accentuations, and levels of emotional instability were determined through empirical tests and mathematical-statistical data. Furthermore, specific styles of parenting relationships, characteristics of the family microclimate, and the system of mutual interaction within the classroom community were studied as main factors that involuntarily guide adolescent behavior and lead to conflicts. The article systematically formulates scientifically based recommendations for the early detection, correction, and establishment of a healthy socio-psychological environment in conflict situations among adolescents in school practice.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik inqirozi, shaxslararo munosabatlar, nizoli xulq-atvor, emotsional holat, empirik tadqiqot, statistik ko‘rsatkich, shaxs xususiyatlari, muloqot madaniyati.

Keywords: adolescent crisis, interpersonal relations, conflict behavior, emotional state, empirical research, statistical indicator, personality traits, communication culture.

Kirish Jamiyatning umumiy taraqqiyoti, uning ijtimoiy barqarorligi va poydevorining mustahkamligi bevosita o‘sib kelayotgan yosh avlodning har

tomonlama sog‘lom ulg‘ayishi, ma’naviy yetukligi hamda atrofdagilar bilan uyg‘un, samarali munosabatlar o‘rnata olish qobiliyatiga chambarchas bog‘liqdir. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, o‘quvchi-yoshlarning intellektual va ruhiy salohiyatini yuksaltirish, ularni ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashtirish davlat siyosatining eng ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilar hayotida, ularning kundalik faoliyatida yuzaga keladigan turli tushunmovchiliklarni, o‘zaro keskin kelishmovchiliklarni, bulling va tazyiq o‘tkazish holatlarini barvaqt o‘rganish, ularning kelib chiqishiga sabab bo‘layotgan tub ijtimoiy va psixologik ildizlarni ochib berish hamda ta’lim muassasalarida doimiy sog‘lom psixologik muhitni qaror toptirish amaliyot oldidagi dolzarb muammolardan sanaladi.

Inson umrining eng murakkab, ziddiyatli va shu bilan birga tub burilishlar davrini tashkil etuvchi o‘smirlik davri bolalikdan kattalik hayotiga o‘tish ko‘prigi bo‘lib, o‘zining shiddatli biologik, fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlari bilan boshqa yosh davrlaridan keskin ajralib turadi. Aynan mana shu davrda bolaning markaziy asab tizimi tashqi ta’sirlarga nisbatan o‘ta ta’sirchan va sezgir bo‘lib qoladi, uning xulq-atvorida o‘z huquqlarini har qanday yo‘l bilan himoya qilish, kattalardek mustaqil bo‘lishga intilish, o‘zining guruhdagi mavqeyini mustahkamlash va o‘zligini “Men”ini namoyon etish istagi yaqqol birinchi o‘ringa chiqadi. Psixologik adabiyotlarda o‘smirlik inqirozi deb ataluvchi ushbu sezgir davrda agar maktab muhitida yoki oila davrasida o‘smir shaxsiga nisbatan uning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda to‘g‘ri muomala uslubi va psixologik munosabat o‘rnatilmasa, boladagi tabiiy ruhiy beqarorlik hamda kutilmagan hissiy portlashlar tengdoshlari, o‘qituvchilari yoki oila a’zolari bilan ochiq to‘qnashuvlarga, ya’ni vayronkor shaxslararo nizolarga sabab bo‘ladi.

O‘smirlar o‘rtasida yuzaga keladigan bunday nosog‘lom munosabatlar shunchaki oddiy xafalashishlardan iborat bo‘lmay, ko‘pincha ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi, maktabga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi va chuqur ruhiy tushkunliklarga (depressiv holatlarga) yetaklaydi. Shuning uchun ham o‘smirlar davrasidagi nizoli munosabatlarning kelib chiqishiga daxldor bo‘lgan shaxsiy va ijtimoiy-muhit omillarini bitiruv malakaviy ishi doirasida to‘plangan real empirik ma’lumotlar, matematik-statistik tahlillar yordamida o‘rganish va ilmiy jihatdan umumlashtirish muammoning amaliy yechimini topishda hamda maktab psixologik xizmatining samaradorligini oshirishda alohida ilmiy qiymatga egadir.

Asosiy qism. O‘smirlik davrining ijtimoiy-psixologik mohiyatini anglash uchun eng avvalo shaxs rivojlanishining ichki qonuniyatlari va uni o‘rgangan jahon hamda mahalliy olimlarning qarashlariga tayanish lozim. Bu yoshda kechadigan shiddatli biologik jarayonlar, xususan gormonal siljishlar hamda jinsiy yetilish asab tizimining ortiqcha taranglashuviga, kayfiyatning keskin tebranishiga va emotsional portlovchanlikka olib keladi.

Sharq va G‘arb mutafakkirlari ham inson tabiatidagi salbiy his-tuyg‘ular jamiyatdagi ijobiy munosabatlarga putur yetkazishini ta’kidlashgan. Buyuk tabib va olim Abu Ali ibn Sino o‘zining tibbiy va falsafiy qarashlarida inson qalbi uchun eng foydali fazilat qanoat ekanini, qalbni va ijtimoiy munosabatlarni barbod qiluvchi eng zararli illat esa g‘azab va hirs ekanini uqtirgan. Ibn Sino fikricha, inson o‘zini mayda gaplardan, o‘zaro o‘chakish va janjallardan, asossiz ginalardan ozod qilmas ekan, u ruhiy poklikka erisha olmaydi. Bu hikmatlar o‘smirlarda muloqot madaniyatini yuksaltirishda hozir ham yuksak qiymatga ega.

G‘arb psixologiyasida Kurt Levin o‘zining “maydon nazariyasi” doirasida konfliktni qarama-qarshi kuchlarning bir vaqtning o‘zida shaxsga ta’sir ko‘rsatishi natijasida yuzaga keladigan psixologik zo‘riqish deb izohlaydi. Uning fikricha, o‘smir

hayotida yaqinlashuv hamda qochish tipidagi ichki va tashqi ziddiyatlar doimiy ravishda to‘qnashib turadi.

Shuningdek, taniqli olim Lev Vigotskiy shaxs rivojlanishini shunchaki biologik jarayon emas, balki ichki qarama-qarshiliklar va ijtimoiy muhit bilan faol o‘zaro ta’sir natijasi deb biladi. Vigotskiy asos solgan madaniy-tarixiy nazariya nuqtayi nazaridan qaraganda, o‘smir shaxsining rivojlanishi - bu ijtimoiy rivojlanish holati mazmunining bola tomonidan ichki o‘zlashtirilishi, ya’ni “interiorizatsiya” jarayonidir. O‘smirlik davrida bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi tubdan va keskin o‘zgaradi, bu esa tabiiy ravishda turli nizoli vaziyatlarning ko‘payishiga olib keladi. Agar o‘smir o‘zining yangi ijtimoiy rollarini muvaffaqiyatli o‘zlashtira olmasa, individual xususiyatlar ta’sirida ushbu jarayon buziladi va ochiq to‘qnashuvlarga zamin yaratadi. Konfliktolog A. Ya. Antsupov konfliktni jamiyat, mikromuhit va shaxs o‘rtasidagi muhim ichki va tashqi ziddiyatlarni hal etishning eng keskin usuli bo‘lib, u konflikt subyektlarining qarama-qarshi harakatlari va salbiy emotsiyalar bilan kechadi, deb ta’riflaydi.

O‘smirlar o‘rtasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar shartli ravishda ichki (shaxsiy-psixologik) va tashqi (ijtimoiy-muhit) guruhlarga ajratiladi. Ichki omillar bevosita bolaning shaxsiy xususiyatlari, o‘z-o‘zini baholash darajasi, aksentuatsiyalari va xavotirlanish hissi bilan bog‘liqdir. O‘smirlik davrida bola o‘z atrofidagi voqealarni o‘ta sezgirlik bilan qabul qiladi va o‘zining guruhdagi o‘rnini qaytadan belgilashga kirishadi. Shunday sharoitda agar o‘smir o‘ziga haddan tashqari past baho bersa, unda o‘z qobiliyatiga ishonchsizlik, atrofidagilardan begonalashish va ichki norozilik kayfiyati kuchayadi. Bunday ruhiy tushkunlik ko‘pincha atrofga nisbatan agressiya (tajovuzkorlik) shaklida namoyon bo‘ladi. Bola o‘zidagi ojizlikni yashirish yoki tengdoshlari oldida o‘zining “kuchli” ekanini isbotlash uchun qo‘pollik, qaysarlik va g‘azab kabi salbiy munosabatlarni ko‘rsatish yo‘lini tanlaydi.

Tashqi omillar esa o‘smir yashayotgan, muloqot qilayotgan va ta’lim olayotgan ijtimoiy muhitni qamrab oladi. Ularning eng birinchisi va asosiysi oilaviy muhitdir.

Oila - bola shaxsini shakllantiruvchi ilk maskandir. Agar oilada ota-ona va farzandlar o‘rtasida samimiy tushunish, ishonch va mehr yetishmasa, nizolar muqarrar bo‘ladi. Ko‘plab oilalarda o‘smir bolaga nisbatan hali ham yosh boladek munosabatda bo‘lish, uning shaxsiy fikrini inkor etish, avtoritar tarzda haddan tashqari qattiq nazorat ostida ushlash yoki butunlay qarovsiz qoldirish holatlari uchraydi. Oiladagi doimiy urush-janjallar va nosog‘lom mikroiqlim o‘smir qalbida chuqur jarohat qoldiradi va u uydagi alamini maktabda tengdoshlaridan yoki o‘qituvchilaridan olishga harakat qiladi.

O‘smir shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi navbatdagi muhim tashqi omil uning tengdoshlari guruhidir. O‘smirlik davrining eng yetakchi faoliyati o‘z tengdoshlari bilan shaxslararo muloqot qilish hisoblanadi. Bola uchun do‘stlarining davrasi, ularning bergan bahosi ota-onaning so‘zidan ham ko‘ra muhimroq ahamiyat kasb eta boshlaydi. Har bir o‘smir o‘zi a’zo bo‘lgan jamoada, sinfda yuqori sotsiometrik maqomga, ya’ni hamma hurmat qiladigan va tan oladigan mavqega erishishni xohlaydi. Agar u o‘zining ijobiy fazilatlari, o‘qishi yoki iqtidori bilan guruhda yetakchi bo‘la olmasa, u o‘zini tasdiqlashning salbiy yo‘llarini (masalan, guruhdagi zaifroq o‘quvchilarni kamsitish, bulling) qidira boshlaydi. Rossiyalik taniqli psixolog olim A.A. Bodalev ta’kidlaganidek, bolaning o‘zi uchun qadrli bo‘lgan guruhdagi (referent guruhdagi) past sotsiometrik maqomi unda kuchli ichki ziddiyatlarni, o‘z-o‘ziga salbiy munosabatni hamda atrofdagilarga nisbatan adovat tuyg‘usini uyg‘otadi.

Professor E. G‘oziyev o‘z tadqiqotlarida insonning muloqot madaniyati va muomala odobiga alohida e’tibor qaratgan. Olimning fikriga ko‘ra, shaxslararo munosabatlardagi barcha tushunmovchiliklar va salbiy holatlar aynan muloqot madaniyatining yetishmasligi, bir-birini tinglay bilmaslik oqibatida yuzaga keladi. O‘zaro hurmat, mehr-oqibat va empatiya, ya’ni o‘zini boshqa inson o‘rniga qo‘yib ko‘ra bilish tuyg‘usi shakllangan muhitda har qanday nizoli vaziyat ijobiy yechim topadi.

Bitiruv malakaviy ishi doirasida o‘smirlar orasida nizolar kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik omillarini teran va aniq o‘rganish maqsadida Farg‘ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 5-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida empirik tadqiqot tashkil etildi. Tadqiqotda 12-14 yosh oralig‘idagi, 7-8 sinflarda tahsil oluvchi jami 63 nafar o‘smir respondent sifatida ishtirok etdi. Ularning 32 nafarini o‘g‘il bolalar va 31 nafarini qiz bolalar tashkil qildi. O‘smirlarning individual-psixologik xususiyatlarini, ularning xarakter xislatlari hamda emotsional sohasini baholash uchun R. Mak Krae va P. Kosta tomonidan ishlab chiqilgan, xalqaro miqyosda mashhur bo‘lgan “Katta beshlik” (Big Five) shaxsiy modeli va uning V. E. Orlov, A. A.Rukavishnikov hamda I. G. Senin tomonidan moslashtirilgan varianti metodik asos qilib olindi.

Ushbu metodika orqali shaxsning beshta mustaqil o‘zgaruvchisi - neyrotizm (emotsional beqarorlik), ekstraversiya, tajribaga ochiqlik (ta’sirchanlik), kelishuvchanlik (mehribonlik) va vijdonlilik (o‘zini-o‘zi nazorat qilish) ko‘rsatkichlari empirik jihatdan o‘rganildi. To‘plangan empirik ma’lumotlar zamonaviy matematik-statistik tahlil dasturi hisoblangan SPSS yordamida qayta ishlandi va Kolmogorov-Smirnov testi, Student t-testi hamda Pirson korrelyatsiya tahlili usullari qo‘llanildi.Olingan statistik natijalar tahlili o‘smirlar orasidagi nizolarning ichki psixologik tabiatini chuqur ochib berdi. Birinchi navbatda, o‘g‘il va qiz bolalarning individual shaxs xususiyatlarida nizolarga moyillik darajasini aniqlash uchun Student t-mezoni yordamida gender farqlari tahlil qilindi. Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, o‘g‘il va qiz o‘smirlar o‘rtasida deyarli barcha psixologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli (statistik jihatdan ahamiyatli) farqlar aniqlanmadi ($p > 0.05$).

1-jadval. Jins omili bo‘yicha o‘smirlar psixologik ko‘rsatkichlarining Student t-mezoni tahlili

Ko‘rsatkichlar	Jinsi	N	Mean (O‘rtacha qiymat)	Standart og‘ish	t-qiymati	Ishonchlilik darajasi (p)
Yoshi	O‘g‘il	32	2.1250	0.75134	1.374	0.174
	Qizlar	31	1.8387	0.89803	1.370	0.176
Sinfi	O‘g‘il	32	1.4194	0.50161	-0.600	0.551
	Qizlar	31	1.5000	0.50990	-0.599	0.552
Ekstroversiya	O‘g‘il	32	51.6563	6.21450	0.731	0.468
	Qizlar	31	50.3226	8.16655	0.728	0.470
Mehribonlik	O‘g‘il	32	55.9688	8.60039	-0.760	0.450
	Qizlar	31	57.7097	9.56101	-0.759	0.451
O‘zini nazorat	O‘g‘il	32	55.9375	9.22807	-1.587	0.118
	Qizlar	31	59.4839	8.47691	-1.589	0.117

Xususan, ekstroversiya-introversiya ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘g‘il bolalarda o‘rtacha qiymat (Mean) 51.65 ga, qiz bolalarda esa 50.32 ga teng bo‘lib, t-qiymati 0.731 va ishonchlilik darajasi p = 0.468 ni tashkil etdi. Bu esa har ikki jins vakillarida ham muloqotga kirishuvchanlik va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlari bir-biriga juda yaqin ekanini bildiradi. Mehribonlik-alohidalik (kelishuvchanlik) ko‘rsatkichida qiz bolalar biroz yuqoriroq natija ko‘rsatgan bo‘lsa-da (qizlarda Mean = 57.70, o‘g‘il bolalarda

Mean = 55.96), bu farq ham statistik jihatdan ishonchli emasligi oydinlashdi (t = -0.760; p = 0.450). O‘zini-o‘zi nazorat qilish (vijdonlilik) xislati bo‘yicha qizlarda o‘rtacha qiymat 59.48 ni, o‘g‘il bolalarda esa 55.93 ni tashkil etdi (t = -1.587; p = 0.118).

Biroq, jins va sinf ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘tkazilgan dispersion tahlil (ANOVA) natijalari guruhlar o‘rtasida ba’zi qiziqarli jihatlarni namoyon qildi.

2-jadval. O‘smirlarning shaxs xususiyatlari bo‘yicha dispersion tahlil (ANOVA) natijalari.

O‘zgaruvchilar	**Dispersiya manbai**	**Kvadratlar yig‘indisi**	**df (erkinlik darajasi)**	**Kvadratlar o‘rtachasi**	**F-qiymati**	**Sig. (p) (ahamiyatlilik darajasi)**
Jinsi	Guruhlararo	1.535	2	0.768	3.241	0.046
	Guruh ichidagi	14.211	60	0.237		
Sinfi	Guruhlararo	8.462	2	4.231	40.240	0.000
	Guruh ichidagi	5.678	54	0.105		
Ekstroversiya	Guruhlararo	47.422	2	23.711	0.448	0.641
	Guruh ichidagi	3178.578	60	52.976		

Mehribonlik	Guruhlararo	372.050	2	186.025	2.369	0.102
	Guruh ichidagi	4711.029	60	78.517		

Jins omili bo‘yicha guruhlararo dispersion tahlilda ayrim psixologik holatlarning namoyon bo‘lishida statistik jihatdan ahamiyatli farq qayd etildi ($F = 3.241$; $p = 0.046$). Bu esa jinsiy moslashuv inqirozi ayrim vaziyatlarda individual reaksiyalarga ta’sir ko‘rsatishini bildiradi. Ayniqsa, o‘smir tahsil olayotgan sinf (yosh bosqichi) ko‘rsatkichi bo‘yicha guruhlar o‘rtasida yuqori darajadagi statistik ahamiyatli farq aniqlandi ($F = 40.240$; $p = 0.000$). Ushbu ko‘rsatkich o‘smirlarning yoshi ulg‘ayishi va yuqori sinfga o‘tishi sari ularning ijtimoiy munosabatlari, sinfdagi sotsiometrik mavqega bo‘lgan intilishlari o‘zgarishini va bu jarayon xulq-atvorda farqlanishlarni keltirib chiqarishini tasdiqlaydi. Ekstroversiya ($F = 0.448$; $p = 0.641$) hamda mehribonlik ($F = 2.369$; $p = 0.102$) ko‘rsatkichlari bo‘yicha dispersion tahlilda guruhlararo ishonchli farq topilmadi.

Tadqiqotning asosiy qismi Pirson korrelyatsiya tahlili natijalarida ko‘rindi. Tahlillar shaxs xislatlari va nizoli vaziyatlarning kechishi o‘rtasida aniq qonuniyatlar borligini ko‘rsatdi.

3-jadval. *O‘smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va shaxs xislatlari o‘rtasidagi o‘zaro korrelyatsiya matritsasi*.

O‘zgaruvchilar	**Jinsi**	**Yoshi**	**Sinfi**	**Ekstroversiya**	**Kelishuvchanlik**	**O‘zini nazorat qilish**	**Emotsional barqarorlik**	**Ta’sirchanlik**

Jinsi	1	-0.173	0.081	-0.093	0.097	0.199	0.070	0.102
Yoshi		1	-0.772 (**)	-0.067	-0.199	-0.208	0.227	-0.209
Sinfi			1	0.239	0.311(*)	0.261	-0.150	0.154
Ekstroversiya				1	0.411(**)	0.287 (*)	0.216	0.570(**)
Kelishuvchanlik					1	0.552 (**)	0.006	0.476(**)

Izoh: (**) - 99% ilmiy ishonchlilik darajasi ($p \leq 0.01$); (*) - 95% ilmiy ishonchlilik darajasi ($p \leq 0.05$).

Statistik tahlilda jins ko‘rsatkichi bilan shaxsning psixologik o‘zgaruvchilari o‘rtasida sezilarli korrelyatsion bog‘liqlik aniqlanmadi (p > 0.05), bu esa o‘smirlar shaxsiyatining shakllanishi jinsga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq emasligini yana bir bor isbotladi. Kutilganidek, o‘smirning yoshi va u o‘qiyotgan sinf ko‘rsatkichi o‘rtasida 0.01 darajadagi yuqori ishonchlilik bilan kuchli manfiy korrelyatsiya aniqlandi (r = -0.772; p = 0.000), bu yosh ulg‘ayishi bilan maktab tizimidagi sinf ko‘rsatkichining qat’iy bog‘liqligini matematik ifodalaydi.

Eng muhimi, o‘smir o‘qiyotgan sinf ko‘rsatkichi bilan uning ayrim ijobiy shaxs xususiyatlari o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik kuzatildi. Jumladan, sinf ko‘rsatkichi va mehribonlik (kelishuvchanlik) o‘rtasida 0.05 darajada ijobiy korrelyatsiya aniqlandi (r = 0.311; p = 0.019). Shuningdek, sinf va o‘zini-o‘zi nazorat qilish (vijdonlilik) xislati o‘rtasida ham ijobiy statistik bog‘liqlik qayd etildi (r

= 0.261; p = 0.050). Bu natijalar o‘smirlarning yuqori sinflarga o‘tishi, muloqot tajribasining ortishi bilan ularda o‘z-o‘zini idora qilish, xushmuomalalik va atrofdagilar bilan kelishuvchanlik ko‘nikmalari asta-sekin shakllana boshlashini, bu esa o‘z navbatida destruktiv nizolarning kamayishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Aksincha, emotsional barqarorligi past (neyrotizm darajasi yuqori) bo‘lgan va o‘zini-o‘zi nazorat qilish ko‘rsatkichi past bo‘lgan o‘smirlarda arzimagan sabablar tufayli ham keskin shaxslararo nizolarga kirishish, agressiv reaksiyalar ko‘rsatish va tengdoshlarini kamsitish (bulling) holatlari ko‘proq uchrashi empirik ma’lumotlar tahlilida o‘z tasdig‘ini topdi.

Xulosa. O‘tkazilgan ilmiy-nazariy va empirik tahlillar asosida o‘smirlar orasida nizolarning kelib chiqishi shunchaki tasodifiy xulqiy holat bo‘lmay, u bolaning biologik rivojlanish inqirozi bilan ijtimoiy muhit talablari to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan murakkab psixologik jarayon ekanligi haqida yakuniy xulosaga kelindi. O‘smirlik davridagi konfliktlar bolaning o‘z shaxsiyatini anglashga intilishi, mustaqillikka ehtiyoj sezishi hamda gormonal o‘zgarishlar tufayli kelib chiquvchi emotsional beqarorlik bilan bevosita uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, oiladagi nosog‘lom mikroiqlim, ota-onalarning bolaga nisbatan o‘ta qattiqqo‘lligi, uning shaxsiy fikrini inkor etishi yoki aksincha, e’tiborsiz va qarovsiz qoldirishi o‘smirni agressiv xulq-atvorga hamda maktab muhitida nizolarga kirishishga undovchi asosiy tashqi ijtimoiy omildir. Maktab jamoasida o‘zining ijobiy fazilatlari bilan munosib sotsiometrik maqomga erisha olmagan hamda o‘z-o‘zini baholashi past bo‘lgan o‘smirlar o‘zlarini guruhda tasdiqlashning salbiy yo‘llarini tanlab, ko‘proq janjallarni keltirib chiqarishga va tengdoshlariga nisbatan tajovuzkor munosabatda bo‘lishga moyil bo‘ladilar.

Tadqiqot natijalari hamda bitiruv malakaviy ishining amaliy vazifalaridan kelib chiqqan holda, o‘smirlar o‘rtasidagi nizolarni kamaytirish va ularning oldini olish bo‘yicha bir qator amaliy tavsiyalar ilgari suriladi. Jumladan, maktab psixologik

xizmatini tizimli yo‘lga qo‘yish doirasida o‘smirlarning ichki zo‘riqishlarini, asabiy tarangliklarini hamda yashirin g‘azablarini korreksiyalash maqsadida individual suhbatlar va maxsus guruhli psixologik treninglarni muntazam o‘tkazish zarur. Ushbu treninglar davomida o‘smirlarga nizoli vaziyatlarda murosaga kelish san’ati, agressiyani boshqarish va ijobiy muloqot madaniyati ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Shuningdek, o‘smirlarning emotsional holatini barqarorlashtirish uchun san’at va ijod orqali davolash usullarini, xususan rasm chizish, loy bilan ishlash hamda ruhiy yengillik mashqlarini amaliyotga keng joriy etish lozim. Bu usullar boladagi ichki xavotir va dushmanlik tuyg‘ularini ijobiy ijodiy energiyaga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar va maktab ma’muriyati o‘smirlar bilan muloqotda tazyiq o‘tkazish va keskin talabchanlik uslubidan voz kechib, ularning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘zaro teng huquqli va hurmatga asoslangan hamkorlik munosabatini o‘rnatishlari zarur. Jamoat oldida o‘smirga qo‘pol tanbeh berish va kamsitishlar uning dushmanlik kayfiyatini qo‘zg‘atishi sababli har bir bolaga individual pedagogik yondashuv metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Eng asosiysi, o‘smirlar tarbiyasida oila va maktab hamkorligini mustahkamlash, oila hamda keng jamoatchilikning birdamligiga erishish lozim. Ota-onalar farzandining maktab hayoti, qiziqishlari va do‘stlari davrasi bilan yaqindan qiziqishlari, uydagi mikroiqlimni samimiy va ishonchli darajada saqlashlari, bolani har tomonlama qo‘llab-quvvatlashlari muvaffaqiyatning asosiy poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Abdullayeva D**. *O‘smirlik psixologiyasi.* – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2018. - 210 b.
2. **Выготский Л.С.** *Развитие психики и основы психологии // Развитие высших психических функций*. – Москва, 1991. – 320 с.
3. **Gazeta.uz axborot sayti** [Elektron resurs]. - URL: https://www.gazeta.uz/ozoz/2022/05/14/children-wellbeing/

4. **Давыдов В.В**. *Теории психологического развития // Психологическое развитие в школьном возрасте*. – Москва, 2002. – 340 с.
5. **Karimova V.M**. *Yosh davrlari psixologiyasi*. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.
6. **Mirziyoyev Sh.**M. *Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari*. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – 145 b.
7. **Olimov, S**. *LEADERSHIP TRAITS: WAYS OUT OF CONFLICT SITUATIONS*. Global Journal of Innovation and Studies in Interdisciplinary Research, 2025, 1 (1), 8-12.
8. **Olimov, S.** *THE EFFECT OF DISEASES ON HUMAN PSYCHOLOGY*. Global Journal of Innovation and Studies in Interdisciplinary Research, 2025, 1 (1), 13-17.
9. **Saidov A.I**., **Eshquvvatov T.E., Eshonqulova N.I**. *Konfliktlar psixologiyasi*. - Samarqand: SamDU nashri, 2015-yil.
10. **Sokhobjonovich, O. S**. Analysis paths of the statistical part of research work. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2025, 5(03), 1-4.
11. **Sokhobjonovich, O. S**. *Determinants of Conflict Occurrence*. International Journal of Pedagogics, 2025, 5 (05), 246-247.
12. **Shams H., Garmaroudi G., & Nedjat S.** *Factors related to bullying: a qualitative study of early adolescent students* // Iranian Red Crescent Medical Journal. – 2017. – Vol. 19(5). – Pp. 1-11. https://doi.org/10.5812/ircmj.42834